


## “EVRIKA-2025” TANLOVI G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI

Bugun, 12-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ilm-fan targ‘ibot markazi va “Science and Innovation” kompaniyasi hamkorligida “Renessans” kino uyida yosh olimlar uchun nufuzli “EVRIKA-2025” tanlovining tantanali taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.





# Ayupov Shavkat Abdullaevich

## O'zR FA Prezidenti







Mazkur tadbir “Ilm va ijod bayrami” shiori ostida oʻtib, ilm-fan, innovatsiya va ijod sari intilayotgan yoshlar, olimlar hamda tadqiqotchilarni bir sahnada jamladi. Tadbirda respublikaning barcha hududlaridan kelgan gʻoliblar, taniqli akademiklar, ilmiy jamoatchilik vakillari hamda 500 dan ortiq yosh izlanuvchilar ishtirok etdilar.

5 ta yoʻnalishda 20 nafar yosh olim va tadqiqotchilar statuetka, diplom hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.